JANNAT VA DO‘ZAXNING MAVJUDLIGI HAMDA ABADIYLIGI MASALASIDA AHLI SUNNA VA SALAFIYLIK QARASHLARI TAHLILI

Nabijonov Muhammadmuso Rasuljon o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
maqsadli tayanch doktoranti
E-mail: nabijonovmuhammadmuso@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Islom aqidasining eng muhim va bahsli masalalaridan biri — jannat va do‘zaxning hozirda yaratilganligi hamda ularning abadiyligi (baqo’) masalasi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ahli sunna val jamoa e’tiqodi bilan salafiylik yo‘nalishi vakillari bo‘lmish Ibn Taymiyya va Ibn Qayyim al-Javziyya o‘rtasidagi ixtilofli nuqtalar klassik manbalar asosida o‘rganilgan. Maqolada mo‘taziliy, xorijiy va jahmiy oqimlarning “fano” haqidagi da’volariga raddiyalar berilib, do‘zaxning abadiyligi borasidagi Qur’oniy va hadisiy dalillarning ustunligi ilmiy asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Jannat, do‘zax, Ahli sunna, Moturidiylik, Salafiylik, Ibn Taymiyya, Ibn Qayyim, xulud, fano, raddiya, e’tiqod, jazo va mukofot, samoviy jannat, ahqob.*

Abstract: *This article provides a comparative analysis of one of the most significant and controversial issues in Islamic creed (Aqidah) — whether Paradise and Hell are already created and the concept of their eternity (baqa'). The research examines the points of contention between the creed of the Ahl al-Sunnah wal-Jama'ah and the representatives of the Salafi movement, namely Ibn Taymiyyah and Ibn Qayyim al-Jawziyya, based on classical sources. The article provides refutations to the claims of the Mu'tazilite, Kharijite, and Jahmite sects regarding the "annihilation" (fana) of Hell, scientifically*

grounding the superiority of Quranic and Hadith evidence concerning the eternity of Hell.

Keywords: *Paradise, Hell, Ahl al-Sunnah, Maturidism, Salafism, Ibn Taymiyyah, Ibn Qayyim, khulud (eternity), fana (annihilation), refutation, creed, punishment and reward, celestial paradise, ahqab.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ одного из важнейших и дискуссионных вопросов исламского вероучения (акиды) — вопроса о сотворенности Рая и Ада в настоящее время и их вечности (бако). В исследовании на основе классических источников изучаются спорные моменты между вероубеждением Ахлю сунна валь джамаа и представителями саляфитского направления Ибн Таймией и Ибн Каййимом аль-Джаузийей. В статье приводятся опровержения утверждений мутазилитского, хариджитского и джахмитского течений об «исчезновении» (фано) Ада, а также научно обосновывается превосходство коранических и хадисовых доказательств вечности Ада.*

Ключевые слова: *Рай, Ад, Ахлю сунна, Матуридизм, Саляфизм, Ибн Таймия, Ибн Каййим, хулуд (вечность), фано (исчезновение), опровержение, вероубеждение, наказание и награда, небесный рай, ахкаб.*

Islom diniy dunyoqarashida oxirat hayotiga bo‘lgan imon nafaqat metafizik tushuncha, balki insonning dunyodagi axloqiy, ijtimoiy va huquqiy mas’uliyatini belgilovchi fundamental omildir. Jannat va do‘zaxning tabiati, ularning qachon yaratilgani va kelajakda davomiyligi haqidagi bahslar Islom tarixining ilk asrlaridanoq kalom ilmining diqqat markazida turgan. Ahli sunna val jamoa, xususan, imom Moturidiy va imom Ash’ariy maktablari bu masalada naqliy dalillarning zohirini asrash bilan birga, ularni mantiqiy izchillikda tushunishni maqsad qilganlar.

Biroq, VIII-IX hijriy asrlarda yashagan Ibn Taymiyya va uning shogirdi Ibn Qayyim tomonidan ilgari surilgan, “do‘zaxning abadiy emasligi” (fano’unnar) haqidagi qarashlar musulmon ummati orasida katta bahslarga sabab bo‘ldi. Ushbu maqola mazkur ixtilofli qarashlarni klassik manbalar, Qur’on tafsirlari va hadis sharhlari asosida chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi.

Ahli sunna val jamoa e’tiqodiga ko‘ra, jannat ham, do‘zax ham allaqachon yaratilgan va hozirda mavjuddir. Bu masala Islom aqidasida “mavjudlik” (vujud) va “tayyorlik” (i’dod) tushunchalari bilan bog‘lanadi.

Ba’zi mo‘taziliylar va xorijiylar esa: “Ular hali yaratilmagan, balki jazolash va mukofotlash kuni — qiyomatda yaratiladi”, deb hisoblab, Alloh taoloning: *“O‘sha oxirat diyorini Biz yer yuzida takabburlik va buzg‘unchilikni istamaydiganlar uchun qilurmiz. Oqibat taqvodorlarnikidir.” (Qasos surasi, 83-oyat)* degan oyatini dalil qilib keltiradilar.

Ular oyatdagi “naj‘aluha” (“qilamiz”) so‘zini “yaratamiz” ma’nosida talqin qiladilar. Ularning ta’kidlashicha, bu yerda “ja‘l” basit ma’noda bo‘lib, bevosita yaratishni anglatadi. Murakkab ja‘l esa bir narsani boshqa ko’rinishga aylantirish yoki xoslashdir.

Ahli sunna ulamolari keltirgan bu dalillariga quydagicha javob beradi: Bu istidlol (dalil keltirish) to‘g‘ri emas. Chunki “naj‘alu” lafzi faqat “yaratamiz” ma’nosigagina xos emas. Ko‘pincha u “aylantiramiz”, “nasib qilamiz”, “xos qilamiz” ma’nolarida ham keladi. Shu bois oyatning ma’nosi: “Uni kibr va fasod istamaganlar uchun nasib qilamiz, ularga xos qilamiz”, deganidir.

Hatto farazan “yaratamiz” deb olsak ham, fe’l hozirgi zamon (muzore’ fe’li) shaklida kelgan. Bu esa darhol amalga oshadigan ishni yoki hozirgi holatni anglatadi. Mo‘taziliylarning da’vosi esa kelajak — qiyomat kuniga bog‘langan. Demak, oyat ularning foydasiga emas.

Alloma Sa’duddin Taftazoniy rohmatullohi alayh shunday yozadi: *“Musulmonlarning barchasi jannat va do‘zax hozir mavjud, degan e’tiqodda.*

Abu Hoshim, Qozi Abduljabbor va ularga ergashgan ayrim mo‘taziliylar esa: ular faqat jazolash va mukofotlash kunida yaratiladi, deganlar.”[1]

“Ja’l” lafzi Arab tilida “xos qilmoq” (tasxir) yoki “nasib etmoq” ma’nosida keng qo‘llaniladi. Masalan, “Biz bu yerni sizlar uchun qarorgoh qildik” deganda yerning avvaldan borligi inkor etilmaydi. Oyatda jannatning yaratilishi emas, balki uning kimga nasib etilishi haqida gap bormoqda. Ya’ni, jannat mavjud, faqat uning egalari qiyomatda aniq bo‘ladi. Arab tilida muzore’ fe’li (hozirgi-kelajak zamon) ish-harakatning hozirda sodir bo‘layotganini ham anglatishi mumkin. Shu bois, mo‘taziliylarning “faqat kelajakda” degan cheklovi asossizdir [1].

Ahli sunna o‘z qarashini quyidagi qat’iy dalillar bilan isbotlaydi: Oyatdagi “**Ihbitu”** (Tushinglar) lafzining ahamiyati: Alloh taolo Odam alayhissalomga: *“U yerdan (jannatdan) tushinglar”* (Baqara, 38) deb amr qilgan. “Hubut” (tushish) lafzi balandlikdan pastlikka, ya’ni oliy olamdan quyi olamga (yerga) o‘tishni bildiradi. Agar u yerdagi bog‘ bo‘lganida, “bir shaxardan ikkinchisiga o‘tinglar” degan ma’no ishlatilgan bo‘lar edi. Toha surasida (117-119 oyatlar) zikr qilingan sifatlar — ochlik, yalang‘ochlik, tashnalik va quyosh jaziramasidan himoyalanganlik — bu dunyodagi hech bir bog‘ga xos emas. Bu sifatlar faqat “Jannatul-Ma’vo” deb ataluvchi abadiy maskandagina jam bo‘ladi [2].

Jannat va do‘zaxning hozirda mavjudligini tasdiqlovchi hadislar “mutavotir” darajasiga yetadi. Rasulullоh alayhissalom me’roj kechasida samoviy olamlarni sayr qilar ekanlar, jannatning darvozalari, uning daryolari (Kavsar) va do‘zaxning dahshatli manzalarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdilar. Sahihul Buxoriyda keltirilgan 3342-hadisda: *"Keyin jannatga kiritildim... unda marvariddan gumbazlar bor ekan, tuprog‘i misk edi"* deb marhamat qilinadi.

[1] Sa’duddin Taftazoniy. “Sharh al-maqosid”. Bayrut. Olamul kutub. 1997. 5/108

Bu "ko‘rish" (ru’yat) voqeasi jannatning hozirda mavjudligiga eng buyuk hissiy dalildir.

Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam davrlarida quyosh tutildi. U zot namoz o‘qidilar. Namoz davomida qo‘l uzatgandek bo‘ldilar, so‘ng ortga chekindindilar. Sahobalar bu haqida so’rashdi. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: *“Men jannatni ko‘rdim (yoki menga ko‘rsatildi). Undan bir shingil uzum olishga qo‘l uzatdim. Agar uni olganimda, dunyo turgunicha undan yerdingiz. Va do‘zaxni ham ko‘rdim. Bugungidek dahshatli manzarani ko‘rmaganman.”*[3]. Ushbu voqea jannatning g‘ayb olamida tayyor ekanini va faqat parda ko‘tarilsa, u namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Islom aqidasida jannat va do‘zaxning abadiyligi (baqo’) masalasi “Al-va’d val-va’id” (va’da va qo‘rqitish) tamoyilining ustiga qurilgan. Alloh taolo jannat haqida: “*Uning mevalari ham, soyasi ham doimiydir”* (Ra’d, 35) deydi. Arab tilidagi “da’imun” (doimiy) so‘zi vaqt bilan cheklanmagan davomiylikni anglatadi. Sod surasining 54-oyatidagi *“ma lau mn nafaad”* (Jannatdagi rizqning tugashi yo’qdir) iborasi esa fano (yo‘q bo‘lish) ehtimolini butunlay yo‘qqa chiqaradi.

Jahmiylar: “Alloh oxirgi va yagona boqiydir, qolgan hamma narsa, jumladan jannat va do‘zax ham yo‘q bo‘lishi kerak”, deb da’vo qiladilar.

Jannat ham, do‘zax ham abadiy bo‘lib, hech qachon yo‘q bo‘lmasligiga Ahli sunna ulamolari quydagicha javob beradilar:

Birinchi dalil: Alloh taolo aytadi: *“Uning mevalari ham, soyasi ham doimiydir.”*

(Ra’d surasi, 35-oyat). Ya’ni jannat ne’matlari vaqtinchalik emas, balki uzluksiz va tuganmasdir.

Ikkinchi dalil: Yana Alloh taolo marhamat qiladi: *“Albatta, bu Bizning rizqimizdir. Uning hech qachon tugashi yo‘q.”*(Sod surasi, 54-oyat). Bu oyat

jannat ne’matlarining cheksiz davom etishini bildiradi. Va bundan boshqa bir necha oyatlar bor.

Do‘zaxning ham abadiy ekaniga quydagi oyatlar dalil bo’ladi:

Birinchi dalil: Alloh taolo aytadi: *“Qachon undagi g‘amdan chiqmoqchi bo‘lsalar, yana unga qaytariladilar.”*(Haj surasi, 22-oyat).

Ikkinchi dalil: Yana deydi: *“Qachon ularning terilari kuyib bitgan bo‘lsa, azobni tatishlari uchun o‘rniga boshqa terilarni almashtiramiz.”*(Niso surasi, 56-oyat). Bu esa azobning uzluksiz davom etishini bildiradi.

Bu masalani mashhur olim Shayx Muhammad Idris Kandehlaviy ham o‘z asarlarida nihoyatda batafsil va chiroyli tarzda sharhlab bergan. U jannat va do‘zaxning abadiyligi Qur’on oyatlari va sahih hadislar bilan qat’iy sobit bo‘lgan aqida ekanini keng dalillar bilan bayon qiladi.

Imom Taqiyuddin as-Subki rahimahulloh o‘zining “Al-I‘tibar bi Baqo’ al-Jannah va an-Nar” (“Jannat va do‘zaxning boqiyligi haqida”) nomli risolasida jannat va do‘zaxning abadiy qolishiga dalolat qiluvchi qariyb yuzga yaqin oyatni keltiradi. Ularning oltmish oyati do‘zax, qirq oyati esa jannat haqida nozil bo‘lgan.

Bu oyatlarning to‘qson to‘qqiztasi do‘zaxning abadiy qolishini ochiq bayon qiladi. O‘ttiz sakkiz oyatda esa jannatning abadiy qolishi ta’kidlangan. Shuningdek, to‘rt oyatda do‘zax haqida “xulud” (abadiy qolish) so‘zi “ta’bid” (mangu davom etish) bilan birga zikr qilingan. Xuddi shuningdek, yetti oyatda jannat haqida ham “xulud” va “ta’bid” birgalikda kelgan.

Bundan tashqari, o‘ttizdan ortiq oyatda jannatdan chiqarib yuborilmaslik aniq bayon qilingan. Bu oyatlar jannat ne’matlari doimiyligi va uning ahli u yerdan chiqarilmasligi haqidagi aqidaviy masalani mustahkamlaydi.

Bu masalada hafiz Ibn al-Qayyim va Ibn Taymiyya rahimahumalloh boshqalardan farqli ravishda do‘zax oxir-oqibat yo‘q bo‘lib ketadi, degan fikrni ilgari surganlari bilan ajralib turadilar.

Ularning zamondoshi bo‘lgan shofi’iy alloma Taqiyuddin as-Subki bu qarashga javoban “Al-I‘tibor bi Baqo’ an-Nar” (“Do‘zaxning boqiy qolishi haqida”) nomli alohida risola yozgan. Shuningdek, yana bir yirik olim Muhammad ibn Ismoil as-San‘ani ham bu fikrni rad etib, “Raf‘ al-Astar li Ibtol Adillat al-Qo’ilin bi Fana’ an-Nar” (“Do‘zax yo‘q bo‘ladi deganlarning dalillarini inkor etish uchun pardalarni ko‘tarish”) nomli risola tasnif etgan.

Ibn Taymiyya Naba surasidagi *“Ular u yerda uzoq zamonlar (ahqob) qoladilar”* (23-oyat) qismini dalil qilib, “huqb” so‘zi vaqt bilan cheklanganini aytadi. Alloma Taqiyuddin as-Subkiy bunga javoban: “Ahqob — bu cheksiz ketma-ket keladigan zamonlardir. Bir zamon tugashi bilan keyingisi boshlanadi va bu to‘xtovsiz davom etadi", deb ta’kidlaydi. Shuningdek, Hud surasidagi (107-oyat) *“Magar Robbing xohlasa”* istisnosi haqida Ibn Taymiyya buni azobning tugashi deb bilsa, Ahli sunna ulamolari buni “Alloh azobni to‘xtatishga qodir, lekin O‘z va’dasiga ko‘ra to‘xtatmaydi” deb talqin qiladilar [5].

Ibn Taymiyyaning yana bir hujjati: “Allohning rahmati g‘azabidan ustundir”. Uning fikricha, kofirlarning cheksiz azoblanishi Allohning mutlaq rahmatiga muvofiq kelmaydi. Imom as-San’oniy va boshqa ulamolar bunga javoban: “Allohning adolati ham Uning rahmatidek haqiqatdir. Kofirlar Allohni va Uning oyatlarini qasddan inkor etdilar. Agar ularning jazosi tugaydigan bo‘lsa, mo‘min va kofir o‘rtasidagi farq oxir-oqibat yo‘qolgan bo‘lar edi”, deb raddiya beradilar [6].

Hozirgi davr olimlari ushbu masalaning axloqiy va ijtimoiy jihatlariga e’tibor qaratadilar. Ashraf Ali Tahonaviyning fikrlarini chuqurroq tahlil qilsak: “Agar do‘zax tugaydi degan fikr keng yoyilsa, bu kofirlar va fosiqlarni gunohga yanada jasoratli qiladi. Ular “baribir bir kun qutulamiz-ku” degan g‘oya bilan yashay boshlaydilar. Vaholanki, Qur’on kofirlarni “mangu azob” bilan ogohlantirgan”.

Shuningdek, Ibn al-Qayyim rahimahulloh ham bu masala haqida shunday deydi: “Do‘zaxning jannat kabi abadiy bo‘lib, hech qachon tugamasligi haqida Qur’on yoki Sunnatda bitta ham ochiq dalil qayerda bor?!. “Ammo faqat do‘zaxning fanosi (ya’ni oxir-oqibat tugashi) masalasida esa, sahobalardan ham shunday fikrni aytgan kishilar borligi rivoyat qilingan. Ular jannat bilan do‘zaxni bu masalada bir xil deb ko‘rmaganlar.” (Hadi al-Arvah ila Bilad al-Afrah, 75-bet. Shu kitobning 67-bobi, u yerda muallif bu masalani batafsil muhokama qiladi) [7].

Ibn al-Qayyim rahimahullohning bu masaladagi so‘zlari ham ayrim joylarda bir-biriga zid keladi. Masalan, u o‘zining mashhur asari *Al-vabil as-soyyib min al-kalim at-toyyib*da shunday deydi: “Insonlar uch toifaga bo‘linadi: biri — mutlaqo pok bo‘lganlar, ularda hech qanday nopoklik yo‘q; ikkinchisi — mutlaqo nopok bo‘lganlar, ularda yaxshilikdan asar ham yo‘q; uchinchisi esa — ichida ham poklik, ham nopoklik aralashgan kishilardir.

Shu sababli ularning boradigan maskanlari ham uch xil bo‘ladi: birinchisi — mutlaq poklik maskani, ikkinchisi — mutlaq nopoklik maskani, uchinchisi esa — ichida poklik ham, nopoklik ham bo‘lgan kishilar uchun maskan.

Birinchi ikki maskan — mutlaq poklik diyori va mutlaq nopoklik diyori — hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi. Ammo uchinchi maskan — ya’ni ichida poklik ham, nopoklik ham bo‘lgan kishilar uchun tayyorlangan maskan — oxir-oqibat tugaydi. Bu esa gunohkorlar maskanidir. Chunki tavhid ahli bo‘lgan gunohkorlardan hech kim do‘zaxda abadiy qolmaydi. Ular qilgan gunohlariga yarasha jazolangach, do‘zaxdan chiqarilib jannatga kiritiladi. Natijada oxir-oqibat faqat ikki maskan qoladi: mutlaq poklik diyori va mutlaq nopoklik diyori.” (Manba: *Al-vabil as-soyyib min al-kalim at-toyyib*, 20-bet) [8].

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jannat va do‘zax hozirda mavjud va "u’iddat" (tayyorlab qo‘yilgan) sifatiga egadir. Ularni "faqat qiyomatda yaratiladi" deyish Qur’oniy va hadisiy dalillarga zid.

2. Do‘zax kofirlar uchun abadiy maskandir. Ibn Taymiyya va Ibn Qayyimning "fano" haqidagi ijtihodlari ularning ilmiy merosidagi eng katta xatolardan biri bo‘lib, ahli sunna ijmosiga (ittifoqiga) xilofdir.

3. Jannat va do‘zaxning abadiyligi Allohning va’dasi bo‘lib, u insonning bu dunyodagi amallariga beriladigan mutlaq adolatli bahodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (SNOSKALAR)

1. Sa’duddin Taftazoniy. Sharhu-l-aqoidi-n-nasafiyya. – Bayrut: Olamul kutub. 1997. – B. 108.

2. Mahmud al-Alusiy. Ruh al-ma’oniy fi tafsir al-Qur’an al-azim. 1-jild. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1994. – B. 350-365.

3. Imom al-Buxoriy. Al-Jami’ al-Sahih. – Bayrut, 1401 h. 3342-hadis.

4. Taqiyuddin as-Subkiy. Al-I’tibor bi baqo’ al-jannah va an-nar. – Bayrut, 1987. – B. 25-60.

5. Muhammad ibn Ismoil as-San’oniy. Raf’ al-astar li ibtol adillat al-qo’ilina bi fana’in-nar. – Riyod, 1995. – B. 40-55.

6. Muhammad Orif Muborakfuriy. “Al-asiyda as-samaviyya sharh al-aqida al-tahoviyya”. Janubiy Afrika. Darul ulum zakariyya. 101-102-bet.

7. Muhammad Orif Muborakfuriy. “Al-asiyda as-samaviyya sharh al-aqida al-tahoviyya”. Janubiy Afrika. Darul ulum zakariyya. 102-bet.

8. Muhammad Orif Muborakfuriy. “Al-asiyda as-samaviyya sharh al-aqida al-tahoviyya”. Janubiy Afrika. Darul ulum zakariyya. 102-bet.